

A stylized world map in white lines on a light gray background. From the map, numerous thin white lines radiate outwards, creating a network or data flow effect. The background features a subtle grid pattern.

ISSN 2410-3586

# УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА

научный журнал

A circular graphic element with a white center and a light blue outer ring. The ring has a grid-like pattern. The date '5-1 2023' is printed in a dark red font in the center.

5-1  
2023

## “O‘TGAN KUNLAR” ROMANINING QAHRAMONLARINING XARAKTER XUSUSIYATLARI

U.S. Ochilov<sup>1</sup>, H.H. Salimova<sup>2</sup>

Abdulla Qodiriyning “ O‘tkan kunlar” asari xalqimizning chin o‘tkan kunlari yaqqol aks ettirilgan asar bo‘lib, bu romanni sevib o‘qimagan adabiyot shaydosi bo‘lmasa kerak. Asarda shuni ko‘rishimiz mumkinki, o‘sha davrdagi tarixiy voqealar, siyosiy to‘qnashuvlar asar qahramonlari xarakter-xususiyatlariga va ularning hayotiga o‘z ta‘sir ko‘rsatmay qolmadi. Bu maqolada biz “O‘tkan kunlar” asaridagi hayotning asl mohiyatini, undagi asosiy qahramonlar, ularning psixologik xarakterlari hamda jamiyatda va oilada tutgan muhim o‘rinlari orqali ko‘rsatib berishga harakat qildik.

*Kalit so‘zlar:* o‘sha davrning ijtimoiy hayoti, siyosiy to‘qnashuvlar, jamiyatning ta‘siri, oiladagi muhit, ota-onaning roli, qahramonlarning xarakter xususiyatlari.

*“Moziyg‘a qaytib ish ko‘rish xayrlik, deydilar. Shunga ko‘ra mavzuni moziydan, yaqin o‘tkan kunlardan, tariximizning eng kirlik, qora kunlari bo‘lg‘an keyingi “xon zamonlari”dan belguladim”.*

*Abdulla Qodiriy (Julqunboy)*

Abdulla Qodiriyning „**O‘tkan kunlar**“ romanining ma‘no doirasi nihoyatda keng yaratilgan asar bo‘lib, unda turli xildagi insoniy taqdirlar, ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-ma‘rifiy, oilaviy-ishqiy hodisalar haqida qalam yuritilgan. Biroq ular orasida yurtning, millatning taqdiri, mustaqilligi kabi masalalar alohida ahamiyat kasb etadi. Asarning bosh qahramonlari Otabek va Yusufbek Hojilar shu yurt istiqboli, faravonligi, tinchligi yo‘lida hayotini, jonini tikkan asl vatanparvar, fidoyi kishilardir. Romanda bir qarashda an‘anaviy ishq dostoni aks etsada, yozuvchining asl maqsadi shu qahramonlar hayoti orqali **o‘sha davrdagi tarixiy voqealar, siyosiy to‘qnashuvlar, ijtimoiy tengsizliklarni ko‘rsatib berish edi.**

“Muallif oshiqning ishqiy sarguzashtlari bahonasida muayyan tarixiy davrni - Turkistonning rus bosqini arafasidagi ahvoli, qora kunlarini ko‘z oldimizda gavdalantiradi. Qodiriy ishqiy sarguzashtlar ko‘rinishida o‘lkaning tutqunlikka tushishining bosh sababi jaholat, qoloqlik va o‘zaro ichki nizolardir degan fikrni g‘oyat ustalik bilan aytadi”. [2]

„O‘tkan kunlar“ romani to‘qima qahramonlarning hayotiylik kasb etishi va tarixiy voqealarga uyg‘unligi jihatidan, mujassamot butunligi va tilidagi nafosati jihatidan ham o‘zbek adabiyoti xazinasidagi durdonalar qatoridan o‘rin olgandir.[2] Yozuvchi romanda qahramonlar xarakteri va qismatini muhit, sharoit, ijtimoiy muammolar bilan chambarchas aloqadorlikda tasvir va tahlil etadi. Inson shaxsining muhit va sharoitga bog‘liq bo‘lib shakllanishi, tarbiyalanishi Yusufbek Hoji hamda Otabek obrazlarining talqinida g‘oyat ibratlidir. Ayniqsa, ularning yurt faravonligi yo‘lida har bir nutqlari va harakatlarida bu yaqqol ko‘zga tashlanadi.

**Yusufbek Hoji** - Marhum ustoz shoir Abdulla Oripov bir suhbatda: “O‘tkan kunlar”ning bosh qahramoni Kumush va Otabek emas, Yusufbek hoji. Agar asarda ana shu muhtasham obraz bo‘lmaganida roman “Ming bir kecha” hikoyalariga o‘xshab qolardi”, degan edilar. Ana shu gapning hikmatini topdim. Abdulla Qodiriy hazratlari Yusufbek Hoji timsolida millatning birdamligi, Vatanning yaxlitligi uchun kurashishni hayotining ma‘nosi deb bilgan; qarindosh-urug‘chilik, tanish-bilishchilik, mahalliychilik qilib o‘zaro nizolashib yurgan maydakashlarni katta ishlarga undab, agar vaziyat shu holda davom etsa, millatning xarob bo‘lishini, yurt tuprog‘ining bosqinchilar oyog‘i ostida xor bo‘lishini bashorat qilgan buyuk siymoni tasvirlagan ekan.[2]

<sup>1</sup>Ochilov U.S. – PhD, Associate professor, Bukhara State University.

<sup>2</sup>Salimova Hulkar Hayot qizi – Buxoro Davlat Universiteti Chet tili va adabiyoti fakultetining 1-bosqich magistranti.

Qolaversa Yusufbek Hoji idrokli oila sohibi va oqil otadir, chunki uning Otabekdek nihoyatda aqlli farzand tarbiyalagani buning yaqqol dalili. Adolatparvar davlat arbobi - xalqqa o'ttiz ikki tanga soliq solinganda, dastlab xonni fikriga qo'shilmaligi, so'ng aholi bilan birga xonga qarshi urush e'lon qilishida yaqqol namoyon. Uning o'z xalqiga bo'lgan sadoqati, uning dardini tinglashi kabi xarakteri Yusufbek Hoji obrazini juda ta'sirli qilib ochib bergan. Shuningdek, u yurtga qipchoqlar kelishida otasining qo'li borligini gumon qilgan Otabekka munosib javob bera olgan yurt fidoyisi edi. Faqatgina o'z o'g'liga mehribon ota bo'lib qolmay, kelinlarini, ayniqsa, Kumushga adolatli va shafqatli qaynotadir. Haqiqatan, Yusufbek Hoji obrazini diqqat bilan o'rganaversangiz, romaning zalvori yuksalib boraveradi, buyuk millat fidoyisini kashf qilasiz. Bir so'z bilan aytganda bugungi kunda yurtimiz madhiyasining baralla kuylanishini Abdulla Qodiriy Yusufbek Hoji obrazi orqali ana shu kunlar orzusini tarannum etmaganmidi?!

**Otabek** - Istiqbol tuyg'usi yuragida jo'sh urgan, vatanparvar, yurt fidoyisi ekanligini Marg'ilonda dor ostidan qaytarilganida uning dildan chiqarib aytgan gaplaridan atrofda xon maslakdoshlarini-da, (istiqbol tuyg'usi tushiga ham kirmagan kishilarni) hissiz qoldirmaydi. Qolaversa, Otabek juda zehni o'tkir, aql-zakovati tahsinga sazavorligini ko'rgan majlis ahli uni xon qiziga munosib ko'rishlaridan anglash qiyin emas. Otabekni aqlli, zukko va kezi kelganda itoatkor farzand deya olamiz, chunki «Bizni kuttirma, o'g'lim!», - deganda Otabek otasiga: ularning "orzusini" amalga oshirishda, agar ularning xursandchiligi shu bilan bo'lsa, har vaqt hozir bo'lib, biroq bo'lajak kelinlari qoshida "jonsiz bir haykal" o'rnida tasavvur qilinishini so'rashidan bilsak bo'ladi. Shuningdek, uning oilaning quli bo'lgan, Otabekning ulg'ayishida va tarbiyasida muhim o'rni bo'lgan Hasanaliga "ma'naviy otam" deb qarashi uning keng mulohazali va tarbiyali "Bek" ekanidan dalolat. Qolaversa, biz Otabekni sadoqatli, vafodor mahbub, biroq Homidning yolg'on xatlariga ishonib qolib, o'zi istamagan holda "birovlar"ni hijron azobida qiynagani uchun uni o'z o'rnida "zulmkor" yor deya ham ta'riflashimiz mumkin.

**O'zbekoyim** - O'zbekoyim ellik besh yoshlar chamasi, chala-dumbul tabiatli bir xotin bo'lsa ham, ammo eriga o'tkirligi bilan mashhur edi. Uning o'tkirligi yolg'iz, eriga emas, Toshkent xotinlariga ham yoyilgan yedi. Shuning bilan birga juda kibrli, obro'e'tiborli, hurmat talab ayol bo'lib, uncha-muncha to'yu azalarga «kavshim ko'chada qolg'an emas» deb bormas edi. Shuning uchun xotinlar o'z to'ylarini O'zbekoyim ishtiroki bilan o'tkazib olsalar, o'zlarini shaharning eng baxtlik xotinlaridan sanab «maning to'yimni bek oyim o'z qo'llari bilan o'tkazdilar» degan jumlaning majlislarda iftixor o'rnida so'zlab yurar edilar. O'zbekoyimning obro'si yolg'iz shular bilangina cheklanib qolmas, uni o'rda xonimlari ham ehtirom qilib o'zlarining «onaxonlari» deb bilar edilar. Shunga ko'ra qaysi bir vaqtlarda o'rda yasovullari Yusufbek hojining eshigiga arava ko'ndalang qilib «o'rda begioyim buyurdilar», deb O'zbekoyimning yasanib chiqishini kutar edilar. Bu tomon bilan qaysi bir majlislarda O'zbekoyim xotinlarning eslarini ham chiqarib yuborar edi: «Kecha o'rda bek oyimdan menga arava kelgan ekan, fe'lim aynab turg'an edi, bormay aravani bo'sh qaytardim... Bo xudo, o'rda bekachi bo'lsa o'ziga, dedim» der edi. Ikkinchi vaqtda: «O'tkan kun o'rdaga borg'an edim, xonimlar yotib qolasiz deb qo'yadilar, noiloj bir kecha yotib keldim», deb so'z orasiga qistirib ketar edi. Bu so'zlarni eshitkuchi xotinlar o'zlarining qandog' bir xotinning suhbatiga noil bo'lg'anlarini o'ylab, O'zbekoyimning ehtiromini tag'in ham kuchaytirar edilar. [ 1, 129]

O'zbekoyim bitta-yu bitta o'g'ili Marg'ilon degan joyda, allakimning qo'lida, asli noma'lum kishilarning qiziga uylanishini hazm qilolmagan, bugun-erta o'g'limning orzu-havasini ko'raman deb entikib o'tirgan va o'g'il boqib katta qilgan ona edi. Bu xabarni Hasanalidan eshitgan kunlari bu ishga chidab turolmadi. «Endi menga bundog' o'g'il kerak emas. Oq sutimni oqqa, ko'k sutimni ko'kka sog'dim. Endi Toshkentga kelmasin u o'zboshimcha betiyiq» deb baqirib-chaqirib, yig'lab-sixtab, dard-u hasratni boshiga kiyib olganida, Otabek Marg'ilon va Toshkent o'rtasida bordi-keldisi ko'p bo'lib qolganida, o'g'lini uylantiramiz deb turib olishida, O'zbekoyim naqadar o'tkir va qizg'anchiq ayol ekanini ko'rishimiz mumkin. Biroq O'zbekoyim bir yerda qotib qolgan obraz vakili emas. Chunki voqealar jarayoniga nazar tashlasak, muhit ta'sirida mana shu o'jar ayol ongida, tabiatida o'zgarishlarni guvohi bo'lamiz. Masalan, bir paytlar orqavartdan «andi» sanalib yurgan Marg'ilonlik keliniga ilk bor ko'rganida mehri jo'shib,

uni qattiq bag'riga bosadi, yuzidan o'pib, negadir yig'laydi, endi Zaynab qolib Kumush tomonga o'tib ketadi.

**Kumush** - Kumushbibi o'n yettini qo'yib o'n sakkizga qadam qo'ygan, qaddi-bo'yi onasiga yetayozg'an ammo jussasi onasiga ko'ra to'laroq bo'lib, nafaqat Otabekning yuragida sevgi, mehr muhabbat uyg'otgan, balki O'zbekoyim, Yusufbek Hoji, Hasanali va boshqalarning yuragida iliq munosabat solgan nihoyatda go'zal, latofatli, soliha, ko'rkam, jozibador obrazdir. Shuning bilan birga Zaynabdan Otabekni juda qizg'onadigan, hatto ba'zi hollarda atayin Zaynabni jig'iga tegish uchun allanimalar o'ylab topadigan, biroq qaynona-qaynotasini nihoyatda hurmat qiladigan, ularning mehrini husni-jamoli, shirin so'zlari va beminnat xizmati ila qozongan iffatli kelin ham edi. Muhtaram Qodiriyning tillari bilan aytganda: "Biz bular bilan tanishishni shu yerda qoldirib ayvonning chap tarafidagi daricha orqalik uyga kiramiz, ham uyning to'riga soling'an atlas ko'rpa, par yostiq quchog'ida sovuqdan erinibmi va yo boshqa bir sabab bilanmi uyg'oq yotqan bir qizni ko'ramiz. Uning qora zulfi par yostiqning turlik tomonig'a tartibsiz suratda to'zg'ib, quyuuq jingalak kibrak ostidag'i timqora ko'zlari bir nuqtaga tikilgan-da, nimadir bir narsani ko'rgan kabi... qop-qora kamon, o'tib ketkan nafis, qiyig' qoshlari chimirilganda, nimadir bir narsadan cho'chigan kabi... to'lg'an oydek g'uborsiz oq yuzi bir oz qizilliqg'a aylangan-da, kimdandir uyalg'an kabi... Shu vaqt ko'rpani qayirib ushlagan oq nozik qo'llari bilan latif burnining o'ng tomonida, tabi'atning nihoyatda usta qo'li bilan qo'ndirilg'an qora xolini qashidi va boshini yostiqdan olib o'turdi. Sariq rupoh atlas ko'ynakning ustidan uning o'rtacha ko'kragi bir oz ko'tarilib turmoq-da edi. Turib o'turgach boshini bir silkitdi-da, ijirg'anib qo'ydi. Silkinish orqasida uning yuzini to'zg'ig'an soch tolalari o'rab olib jonsiz bir suratka kirgizdi. Bu qiz suratida ko'ringan malak qutidorning qizi — Kumushbibi edi." [1,28]

**Zaynab** - Olim ponsadning qizi, oilada to'rtinchi, kenja farzand, o'n yetti yoshlar chamaliq, kulcha yuzli, oppoqqina, o'rtacha husn egasi bo'lsada, butun Toshkentlik qizlar orasidan O'zbekoyimning nozik didini qozona olgan o'rta bo'yli, mehnatga pishgan, ota-onasining e'tiboriga va mehriga to'ymagan, opalari bilan narsa talashmay menga shu ham bo'laveradi zaylida hayotga boqadigan ammo bayramlardan bir kungina oldin o'z qadrini o'ylab menga bu yoqmadi... deb onda-sonda yig'lab turadigan, qaynona-qaynotasining beminnat mehnati ila mehrini qozona olgan qiz. Biroq turmushga chiqqan zahoti, ko'z oldidagi begining sarob ekanini, jismi uzatsa qo'l yetadigan yerda turgani bilan qalbi olamning u chekkasi qadar uzoq ekanligini bilgan alamzada kelinchak, jufti halolining e'tiboridan chetda qolgan, mehrga tashna, qalbi iztiroblarga to'la, kundoshlik muhitini og'ir-bosiqlik bilan qabul qilgan, opasi Xushro'y so'zlari bilan asta-sekin qasoskorga aylangan "qotil" edi. Muhtaram shoir Muhammad Yusuf tilidan aytilgan misralar orqali fikrimizni boyitadigan bo'lsak:

- Tengim boshqa deydi yor,
- Topdim desam tengimni.
- Marg'ilonlik bir dildor
- Tortib oldi begimni...
- Nima bo'ldi bek yigit,
- Bekangizga qarash yo'q?
- Kumushdan ming o'rgilib,
- Zaynabdan hol so'rash yo'q. Zaynabning nihoyatda sabrli, bardoshli qiz eka-

nini Kumushning Toshkentda qolgani unga nechog'lik og'ir botganidan, yoki bo'lmasa Yusufbek Hojining Kumushga "Marg'ilondda shunday kelinimiz bor ekan, bilmay yurgan ekanimiz" degan so'zlarini qanchalik qiyin bo'lmasin qabul qilganidan, Kumush homilador bo'lganida O'zbekoyimning unga munosabati o'zgarganidan, Zaynab o'tirsa o'poq tursa so'poq deb undan kamchiliklar qidirishini sabr bilan yengganidan, eng qiyini, Otabekning Zaynabga yetarlicha mehr bermaganidan sezish qiyin emas. Ayniqsa, Zaynab javobsiz sevgi alamidan yonib, sevmagan Otabek quchog'ida o'zini tashlab, jonsiz haykalni o'pib, quchoqlab, yolverishlaridan uning nechog'lik ayanchli qismat egasi ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bir so'z bilan aytganda ota - ona orzusi tufayli chigallashib ketgan hayotda oshiqqa mashuqa bo'lib emas, ag'yor obrazida yashagan suluv Olim ponsadning qizi - Zaynab edi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak yozuvchi Abdulla Qodiriy bu romanda shu qahramonlar tasviri orqali hayotning ne chog'lik murakkabligini hamda o'z davrining ijtimoiy tengsizligini, bu tengsizliklar oila muhitiga, farzand tarbiyasiga bevosita

ta'sirini nihoyatda ustalik bilan ko'rsatib bergan. Undagi turli xil real ziddiyatlar, siyosiy muammolar orqali tariximizning eng qora, kir kunlarini, shuningdek, asarning aynan qish fasli bilan boshlanishi bilan xalqimizning ijtimoiy ahvoli naqadar sovuqligini, mohirlik bilan aks ettirgan. E'tibor qiladigan bo'lsak romanning ba'zi qismlari azon tovushining eshitilib turishi bilan boshlanardi yoki davom etardi, ya'ni xalq namozga choqirilardi, biroq hech kim deyarli namoz o'qimasdi. Qodiriy hazratlari azonni bir ko'chma ma'noda qo'llab, millatning birdamlikka choqirgan, Vatanning yaxlitligi uchun kurashishni hayotining ma'nosi deb bilgan, qarindosh-urug'chilik, tanish-bilishchilik, mahalliychilik qilib o'zaro nizolashib yurgan maydakashlarni katta ishlarga undab, agar vaziyat shu holda davom etsa, millatning xarob bo'lishini, yurt tuprog'ining bosqinchilar oyog'i ostida xor bo'lishini bashorat qilgan. Shuningdek, yozuvchini romanda haqiqiy sevgi-muhabbat, hurmat-ehtirom, sadoqat, vafo, ibo-hayo kabi tushunchalarni eng oliy o'ringa qo'yib, ma'naviy-axloqiy va oilaviy-ishqiy munosabatlar orqali o'zbek oilalarining hayotini real tarzda ochib bergan mohir qalam ustasi desak mublag'a bo'lmaydi.

*Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:*

1. A. Qodiriy. „O'tkan kunlar“ romani „Sharq“ nashriyot – matbaa Toshkent 2013– yil
2. Saparboyev I " Men sevgan asar. A Qodiriyning "O'tgan kunlar" romani. Badiy tasvir vositalari.
3. Boymurodov S "A. Qodiriyning "O'tkan kunlar" asari va nutq odobi"
4. Очилов УС. АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ ВА ТЕОДОР ДРАЙЗЕРНИНГ АСАРЛАРИДА НАТУРАЛИЗМ ТАМОЙИЛЛАРИ. EDITORIAL BOARD. 2022 May 17:650
5. Sayfulloyevich, Ochilov. "Naturalistic Features In Abdulla Qodiriy's "Bygone Days"." International Journal of Progressive Sciences and Technologies [Online], 28.2 (2021): 333-337. Web. 24 Mar. 2023
6. Qodiriy A. " O'tkan kunlar", T, G'ulom nashr., 1992.
7. Days gone by. Abdulla Qadiri, translated by Carol Ermakova. Nouvtiodeau Monde editions, Paris.2018
8. Tukhtasinov I.M, Muminov O.M, Khamidov A.A. The days gone by. Novel by Abdulla Qodiriy. Tashkent.2017.

© Н.Ш. Исакова, 2023.

## СОДЕРЖАНИЕ НОМЕРА

### **Технические и естественные науки**

|   |    |
|---|----|
| ДИНАМИК ЮКЛАНИШДА КОМПОЗИЦИОН МАТЕРИАЛЛАРНИНГ ҚОВУШҚОҚ-<br>ЭЛАСТИКЛИК ХУСУСИЯТЛАРИ<br><i>А. Ж. Адизова</i> .....  | 3  |
| РАЦИОНАЛЬНЫЙ СПОСОБ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ДЕФОРМИРОВАННОГО СОСТОЯНИЯ<br>ДВИЖУЩЕЙСЯ НИТИ<br><i>А.Ж. Адизова</i> .....  | 6  |
| DISEASES OF APRICOT TREES<br><i>N.A. Turaeva, D.A. Qilicheva</i> .....  | 9  |
| ИЗМЕНЕНИЕ ЭНЕРГИИ ЭЛЕКТРОННЫХ УРОВНЕЙ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ<br>МЕЖМОЛЕКУЛЯРНОГО ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ МОНОМЕРНЫХ МОЛЕКУЛ РИБОФЛАВИНА В<br>РАСТВОРАХ<br><i>С.Х. Астанов, Г.К. Касимова, Р.Х. Шамсиев</i> ..... | 12 |
| THE OBSERVED DESTRUCTION OF VITAMIN B <sub>2</sub> AND THEIR AQUEOUS SOLUTIONS<br><i>S.H. Astanov, R.Kh. Shamsiev, G.K. Kasimova</i> .....  | 17 |
| <b>Медицинские науки</b>  |    |
| HIV INFECTION AND MOTHERHOOD<br><i>I.B. Kalniyazova, Zh.A. Rahmanova, G.T. Niyazova</i> .....   | 20 |
| РОДОВАЯ ТРАВМА В АСПЕКТЕ НЕОНАТОЛОГИИ<br><i>К.С. Колотило</i> .....   | 25 |
| <b>Гуманитарные и общественные науки</b> .....  | 29 |
| РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА АВТОМОБИЛСОЗЛИК САНОАТИДА ТАШКИЛИЙ-<br>ИҚТИСОДИЙ ЎЗГАРИШЛАРНИ БАҲОЛАШ<br><i>Н.Ш. Исакова</i> .....  | 29 |
| “O‘TGAN KUNLAR” ROMANINING QAHRAMONLARINING XARAKTER XUSUSIYATLARI<br><i>U.S. Ochilov, H.H. Salimova</i> .....  | 31 |
| LEARNING ENGLISH THROUGH STORIES<br><i>Sh.Sh. Karshieva</i> .....   | 35 |
| ЎЗБЕКИСТОН МИНТАҚАЛАРИДАГИ ДЕМОГРАФИК ВАЗИЯТ ВА УНИНГ МЕҲНАТ БОЗОРИГА<br>ТАЪСИРИ<br><i>Г.Т. Умарова</i> .....   | 37 |
| СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОММУНИКАТИВНО-КРЕАТИВНОГО ПОТЕНЦИАЛА БУДУЩИХ<br>УЧИТЕЛЕЙ В ПРОЦЕССЕ ТЕХНОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ<br><i>Т.Х. Халиков</i> .....   | 44 |
| METHODS OF USING MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGY IN THE DEVELOPMENT OF<br>STUDENTS' COMMUNICATION SKILLS IN THE DIRECTION OF TOURISM<br><i>D.K. Yuldasheva</i> .....                                | 48 |
| CAUSES OF SPEECH DEFECTS AND THEIR CORRECTION METHODS (IN CHILDREN WITH<br>MENTAL FRAILITY)<br><i>M.M. Jurayeva</i> .....   | 52 |
| CHARACTERISTICS OF PSYCHOLOGICAL DEVELOPMENT OF CAREGIVERS<br><i>K.M. Irisboeva</i> .....   | 54 |
| WAYS AND METHODS OF DEVELOPING CREATIVE THINKING OF EDUCATORS OF THE<br>PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION<br><i>N.A. Isroilova</i> .....   | 57 |
| ETHNOLOGICAL ANALYSIS OF WATER IN ISLAM<br><i>A.A. Mavlonov</i> .....   | 59 |
| FORMATION OF SPEECH CULTURE SKILLS AMONG FUTURE PRIMARY EDUCATION TEACHERS<br><i>D.E. Mirzabdullaeva</i> .....  | 62 |
| THEORETICAL APPROACHES TO THE ISSUE OF MOTIVATION AS A HIGH FORM OF<br>MANAGEMENT<br><i>N.Kh. Kholyigitova</i> .....  | 64 |